

HOKIM YoRDAMChISI - FUQAROLAR KO'MAKChISI



HOKIM YoRDAMChISI - FUQAROLAR KO'MAKChISI

Devayron mahalla fuqarolar yig'iniga hokim yordamchisi bo'lib tayinlangan Gulxanjon Mamajonovning asli kasbi iqtisodchi. Shuning uchun bo'lsa kerak, mahallada o'z faoliyatini kam ta'minlangan oilalarga yordam berishdan boshladi.

- Bizning asosiy maqsadimiz ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolarga qonun doirasida amaliy yordam berish va albatta kambag'allikni qisqartirishdan iborat. Ayniqsa, bayram kunlarida bunday fuqarolarimiz holidan xabar olish ularga katta quvonch baxsh etadi, - deydi bizga Gulxanjon o'z so'zida.

Bugun Devayron mahallasida yashovchi fuqaro Valida Azizovaga hokim yordamchisi va bandlikka ko'maklashishi markazi xodimlari ishtirokida bayram sovg'asi sifatida suv nasosi berildi.

Muhtaram Prezidentimizning olib borayotgan siyosatlaridan rosa xursand bo'lan Validaxon o'z minnatdorchiligini samimiy so'zlar ila izhor etdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-09 18:10:50